

G'oyibnazar Qozi madrasasi

(Isoqxon To'ra Ibrat muzeyi)

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi

ilmiy xodimi: H. Valiyeva

To'raqo'rg'on shahrining markazida joylashgan G'oyibnazar qozi madrasasi, (Sho'rolar davrida «qozi» so'zi qoldirilib, G'aynazar yoki G'oyibnazar madrasasi nomi bilan atab kelingan). Ushbu madrasaning old fasadida, ya'ni kirish eshigining yuqori qismida madrasani o'sha davrdagi yetuk me'mor usta Mulla Qirg'iz qurganligi yozib qo'yilgan. Ushbu madrasaga asos solgan va uning qurilishiga katta mablag' sarf qilgan G'oyibnazar XIX asrning so'nggi choragidan boshlab, XX asrning boshlariga qadar To'raqo'rg'on qozilik qilgan saxovatli, ilm ma'rifatli, xalqparvar inson edi. O'sha paytlardagi yuz bergan ocharchilik yillarida ko'pchilikning qornini to'ydirib, yetimlar boshini silab, homiylik qilib kelgan. G'oyibnazar qozi Xudo rizosi uchun xoli bir madrasa qurishga qaror qiladi va bu ishni o'sha davrning mashhur va taniqli me'mori usta Mulla Qirg'iz ibn Ibrohim me'morga topshiradi. Usta Mulla Qirg'iz bo'lajak binoning tarxi (plani) va rejasini ishlab chiqib, 1890 yilda qurilishni boshlab yuboradi. Madrasa to'g'ri burchakli tarh asosida 30x40 metr hajmda qurilgan. Fasad qismi gumbazining balandligi 17 metr bo'lib, ikki qavatli gumbaz va burchagidagi mezanalardan tashkil topgan. Madrasa tevarak atrofi hujralar bilan o'ralgan hovli shaklida qurilgan. Fasad qismi pishgan g'ishtdan barpo etilgan. Tevarak atrofidagi hujralari esa xom g'ishtdan qurilgan. Bu jarayonda yollangan ishchi-mardikorlardan tashqari xalq hasharchilari ham ishtirok etishadi va madrasa ikki yildan oshiqroq muddatda, ya'ni 1892 yilda pishiq g'ishtdan, ixcham qilib qurib bitkaziladi. Bino qadimiy O'rta Osiyo madrasalari an'anasiga muvofiq bunyod etilgan bo'lib, yopiq, to'g'ri burchakli, tevarak atrofi hujrali va bu mutanosiblikka muvofiq tarzda, madrasa hovlisidan iborat bo'lgan.

Sharq tomondagi hujralari ikki qavatli qilib qurilgan. Kirish darvozasi bosh fasadining me'moriy usulida an'anaviy shakldagi ravoqli peshtoq qo'llanilgan. Uning ikki tomonidan ikkinchi qavat ravoqlari ko'zga tashlanib turadi. Binoga kirish darvozasining ikki yonidagi bino burchaklarida ikkita katta minora bunyod etilib, ularning ustiga mezanalar ishlangan. Mazkur mezanalar sirtini g'ishtdan bo'rttirib ishlangan naqshlar va ajoyib san'atli arabiy yozuvlar bezab turadi. Madrasaga kirish qismining ikki yonidagi bino tomlari qovurg'ali ikki gumbaz bilan yopilgan. Mazkur gumbaz va minoralar binoga ajoyib bir ulug'vorlik baxsh etib turadi. Madrasaning ichki qismidagi hujralarda tolibi ilmlar turgan bo'lsa, gumbazlar ostidagi xonalar darsxona bo'lib, ularda saboq olishgan. Nazar o'g'li G'oyibjon 1833 yilda hunarmand oilasida dunyoga kelgan. U katta qomatli, o'tkir zehni bo'lib, savodini Arabiston, Afg'oniston va Turkiyada oshirgan. U Qo'qon xonligida eng yirik qozi bo'lib ish boshlagan, G'oyibnazar qozi juda odil, halol inson bo'lgan. U 1891 yilda o'zining shaxsiy jamg'armasidan Istanbul shahridagi do'stlari ko'magida me'morlik san'ati namunasi bo'lmish G'oyibnazar qozi uy madrasasi qurilishini boshladi. Chotqol tog'laridagi archalarni Kosonsoyda oqizib keltirgan. G'oyibnazar qozi uy madrasasi qurilishi 1895 yilda nihoyasiga yetgan. G'oyibnazar qozi uy madrasasini vaqfi Bo'ston, Yelxon va Alamli buvagacha bo'lgan. 1896 yilda G'oyibnazar qozi vafot etadi. Undan qolgan yer, suv, kabi boyliklarini meros sifatida katta xotinlarining farzandlari bo'lishib olganlar. Farzandlari Abbosxon bilan Hamroxonga 1910 yilda G'oyibnazar qozi madrasasi va unga tegishli yer-suvlar qonuniy meros qilib berildi. Mehrixon aya va farzandlari 1949 yilgacha shu G'oyibnazar qozi uy madrasasida yashadilar. G'oyibnazar qozi o'z davrining fidoyi insoni bo'lib, To'raqo'rg'onda bir necha bog'lar yaratgan. Ilm–hunarni juda ardoqlab, unga keng yo'l ochgan. Ishoqxon Ibrat, Abduqahhor a'lam, Jalolxon imom uning talabalaridir. G'oyibnazar qozining o'g'li Abbosxon Nazarov 1920 yilda maorifda rus tili va politexnika ta'limidan dars berib, ilmiy bo'lim mudiri va direktor bo'lib ishlagan.

Umrining oxirigacha fidoyilik qilgan. 1949 yilda vafot etgan. Uning o'g'illari va nevaralari hozirgi kungacha xalq ta'limi sohalarida ishlab kelmoqda. G'oyibnazar qozining vasiqa va meroslari professor Ismatulla Abdullaev tomonidan 1992 yilda tarjima qilingan. G'oyibnazar qozi haqidagi barcha ma'lumotlarni yig'ish va o'rganish sohasida To'raqo'rg'on tumani maorif va madaniyat xotira uyida juda ko'p ibratli ishlar amalga oshirilgan.

Xullas, G'oyibnazar qozi madrasasi Namangan viloyati hududida saqlanib qolgan an'anaviy uslubda bunyod etilgan madrasa sanaladi va Namangan shahridagi Mulla Qirg'iz madrasasidan keyingi ikkinchi me'morlik obida sifatida ulkan ahamiyatga egadir.

2018 yilda G'oyibnazar qozi madrasasida Isoqxon To'ra Ibrat muzeyi ochilgan bo'lib hozirgi kunda keng qamrovli aholiga hamda chet ellik sayyohlarga xizmat qilib kelmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Moziydan sado ilmiy-amaliy, ma'naviy-marifiy jurnal 4.(68).2015 yil soni.
2. San'at jurnal.2/2013 yil soni.
3. San'at O'zbekiston Badiiy Akademiyasi jurnali 1/2018 yil №78
4. Tamaddun Tariximizni o'rganamiz 6-son 2023 y
5. Namangan sadosi gazeta 3 soni aprel'.
6. Namangan viloyati me'moray obidalar sirlari. Namangan nashriyoti I.YU. Yusupov. E. Yu. Mirzaliev
7. Namangan viloyati ziyoratgoxlari. Namangan shaxri 2015 y. L. Axmadaliev